

IFMR

Institute of Forecasting and
Macroeconomic Research

2022-yil, oktabr



O'ZBEKISTON MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISH UCHUN YANGI ISTIQBOLLI TASHQI BOZORLAR

**PROGNOZLASHTIRISH
VA MAKROIQTISODIY
TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT
MASALALARI BO'YICHA LOYIHA**

TAYYORLADI:

**I. KASIMOV
S. ASHRAFXONOV**

O‘zbekiston mahsulotlarini eksport qilish uchun yangi istiqbolli tashqi bozorlar

PMTI ekspertlari O‘zbekistondan eksport qilinadigan tovar guruhlarini uchun eksport qilish mumkin bo‘lgan yangi istiqbolli bozorlarni aniqladi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 28-maqсадiga ko‘ra, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishning yangi salohiyatli bozorlarini aniqlash asosiy masalalardan biridir. Ma‘lumotlarni veb-resurslardan avtomatik tarzda to‘plash usuli bo‘yicha xalqaro yuk tashuvlariga oid ma‘lumotlar tahlil qilindi va O‘zbekistonning turli mahsulotlarini sotish uchun eng jozibador mamlakatlar bosqichma-bosqich aniqlandi. Ushbu tadqiqot eksportga yo‘naltirilgan korxonalar, shuningdek, tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirishda davlat idoralari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Turli mahsulotlarning jahon bozorida tadqiq qilinishi O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chetga sotishda yangi potensial eksport bozorlarini yaxshiroq aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot uchun ma‘lumot olishning usullaridan biri bu veb-skreypping - standart umumlashtirilgan belgilash tili yordamida yaratilgan veb-sahifalardan ma‘lumotlarni olish. Ma‘lumotlarni olishning ushbu usuli ma‘lumot olish tezligida afzalliklarga ega. Chunki skriptni ishga tushirish orqali ma‘lumotni istalgan vaqtda olish mumkin.

Ma‘lumotlar go4WorldBusiness veb-saytidan yig‘ilgan bo‘lib, 2022-yil aprel oyidan iyul oyigacha bo‘lgan 3000 dan ortiq xalqaro yuk jo‘natmalariga oid [1]. Ma‘lumotlar jo‘natuvchi, yuk jo‘natilgan joy, belgilangan manzil, tovarlar soni va boshqa ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Sankey diagrammasi [2] yordamida ma‘lumotlarni tasavvur qilish mumkin. Bunda tovarlar oqimi va yuk tashishlar soni ko‘rsatilgan. Quyidagi diagrammada belgilangan manzilga liniyalar bilan bog‘langan tovarlarning asosiy toifalari ko‘rsatilgan. Qalinroq chiziqlar ko‘proq yuklarga mos keladi.




Diagramma 1. Xalqaro yuk tashuvlari jadvali, Sankey diagrammasi

Grafikdan ko'rish mumkinki, don, o'simlik yog'i va metallar boshqa mahsulot toifalariga nisbatan ko'proq tashilgan. Bu ushbu mahsulotlarga talab ortib borayotganligini tasdiqlovchi boshqa tadqiqotlarga mos keladi. Oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, ziravorlar, paxta va paxta mahsulotlari ham xarid qilingan. Yuk tashuvlarining yarmiga yaqini Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining uleushigs to'g'ri keladi. Ko'pgina hududlarda barcha turdagi tovarlar, yuk tashishning umumiy soniga mos keladigan hajmda sotib olingan. Bu yerda istisnoli holatlar Janubiy va Markaziy Amerika mamlakatlarida bo'lib, ularga to'qimachilik mahsulotlari, shuningdek, meva va sabzavotlar yetkazib berilmagan. Ehtimol, bu mamlakatlar ushbu turdagi mahsulotlarni dunyoning qolgan qismiga asosiy eksportchilari ekanligi bilan bog'liqdir.

Diagrammada 2022-yil aprel oyidan iyun oyigacha bo'lgan davrda turli xil mahsulotlarning yuk tashishlar soni taqsimoti ko'rsatilgan. Ushbu toifadagi tovarlar uchun talabning o'zgarishiga mavsumiy omillar ta'siridan tashqari, Ukrainadagi vaziyat, butun dunyo bo'ylab logistik ta'minot uzilishlari, pandemiya tufayli yuzaga kelgan retsessiyalar va boshqa global hodisalar sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin. Biroq, mahsulotlarning aksariyat toifalari uchun apreldan iyungacha xalqaro trafikning o'sishi kuzatildi. Ziravorlar va to'qimachilik mahsulotlari bundan mustasno. May oyida 40% dan iyun oyida 20% gacha, mos ravishda 33% dan 24% gacha kamaydi. O'simlik yog'lari, to'qimachilik mahsulotlari va ziravorlar tashish ulushi may oyida eng yuqori bo'ldi va o'rtacha 35 %ni tashkil etdi. Keyingi

toifadagi yuk tashish nisbati iyun oyida eng yuqori bo'ldi va taxminan uchdan bir qismini tashkil etdi.




Diagramma 2. 2022-yilning aprel-iyul oylari oralig'ida yuk tashuvlari soni taqsimoti

O'zbekiston mahsulotlarini sotish bo'yicha eng istiqbolli bozorlarni izlashdan oldin, uning eng ko'p eksport qilinadigan tovarlarini quyidagi jadvalga asosanib aniqlab olishimiz mumkin.




Diagramma 3. Mahsulot toifalarining ulushi

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, eksportning eng asosiy qismi bu oltin, tabiiy gaz, meva-sabzavot, paxta va boshqa bir qancha toifadagi tovarlardir [3]. Eksport qilinadigan mahsulotlar hajmi mamlakatning eksport imkoniyatlari haqida xabar beradi, ammo katta RCA indeksiga ega bo'lgan mahsulotlarni ham ko'rib chiqish foydali – formula [4] bo'yicha

hisoblangan ma'lum turdagi mahsulotlar eksportining mamlakat umumiy eksportidagi ulushining jahon eksportidagi bir xil turdagi mahsulotlar ulushiga nisbati:

$$RCA_{cp} = \frac{E_{cp} / \sum_{p'} E_{cp'}}{\sum_w E_{wp} / \sum_{wp'} E_{wp'}}$$

Bu yerda p va p' - mahsulot toifalari, c - mamlakat, w - dunyoning barcha mamlakatlari, E - eksport.

Indeks qiymati birdan katta bo'lsa, mahsulotning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ko'rsatadi. Ushbu indeksga ko'ra, tovarlarning quyidagi toifalari O'zbekiston uchun eng yuqori qiymatga ega bo'ladi [5]:

Mahsulotlar	RCA
Ipak	243,5
Radioaktiv elementlar	50,3
Bug'doy va un	48,9
To'qimachilik iplari	47,2
Rux	23,8
Oltinugurt va oltinugurtli metallar	16,5
Paxta	15,9
Boshqa metallar	12,4
O'g'itlar	7,6
Meva va sabzavotlar	7,4
Matolar	7,3
Polietilen	5,8
Sintetik matolar	4,6
Tabiiy gaz	4,1

1-jadval. O'zbekistonning eng yuqori RCA tovarlari turi

Shu o'rinda xulosa qilish mumkinki, hozirgi eksport hajmi kichik bo'lgan ba'zi bir mahsulotlar eksport uchun katta imkoniyatlarga ega. Birinchi diagrammadagi eng yuqori RCAga ega bo'lgan mahsulotlarni mamlakatlar bilan taqqoslab, O'zbekiston u yoki bu mahsulotni qaysi yangi mamlakatlarga yetkazib berishi mumkinligini taxmin qilishimiz mumkin.

Endi 2022-yilning aprel-iyul oylarida qaysi davlatlar don mahsulotlarini boshqalarga qaraganda ko'proq sotib olganini ko'rib chiqamiz va ular orasidan mamlakatimiz mahsulotlarini eksport qilish uchun yangi bozorlarni aniqlashga harakat qilamiz. Buning uchun biz istiqbolli bozor indeksini (IBI) kiritamiz - bir mamlakat ushbu toifadagi tovarlarining jahon importi hajmini O'zbekistongacha bo'lgan masofaga nisbatini joriy qilamiz va bu ko'rsatkichni har bir mamlakat uchun 0 va 1 oralig'iga keltiramiz. Shunga ko'ra, indeksning kattaroq qiymati ushbu mamlakat uchun katta istiqbol sifatida talqin qilinadi. O'zbekiston don mahsulotlarini yetkazib berayotgan va oxirgi 5 yil ichida import hajmi pasaygan mamlakatlarni hisobga olmasak, biz eng istiqbolli mamlakatlarni topamiz:

Mamlakat	Importning o'rtacha hajmi, 2017-2021 y., mln. AQSh dollar	Importning o'rtacha o'sish sur'ati, 2017-2021 y., %	O'zbekistongacha masofa, km	IBI
Xitoy	10634,2	38,09%	3630,7	1,000
Yaponiya	7276,8	8,22%	6407,9	0,357
AQSh	11635,5	7,60%	10786,7	0,317
Turkiya	3255,7	21,45%	3893,5	0,244
Bangladesh	2196,8	14,00%	4140,9	0,201
BAA	2396,6	8,31%	4199,7	0,153
Kanada	3730,4	7,23%	8695,9	0,099
Kuvayt	924,9	5,88%	3020,9	0,064
Qatar	482,7	2,82%	3858,3	0,003
Hindiston	394,6	-14,90%	3377,3	0,000

2-jadval. Don mahsulotlari uchun hisob-kitoblar

Eng istiqbolli bozorlar yashil rang bilan belgilangan: Yaponiya va Bangladesh. Xuddi shuningdek, biz boshqa toifadagi tovarlarni eksport qilish uchun istiqbolli mamlakatlarni belgilaymiz.

O'simlik moyi uchun:

Mamlakat	Importning o'rtacha hajmi, 2017-2021 y., mln. AQSh dollar	Importning o'rtacha o'sish sur'ati, 2017-2021 y., %	O'zbekistongacha masofa, km	IBI
Hindiston	24538,4	13,41%	3377,3	1,000
Xitoy	20290,2	17,53%	3630,7	0,929
Bangladesh	6055,8	22,86%	4140,9	0,589
AQSh	14383,8	10,01%	10786,7	0,280
Turkiya	3012,3	18,86%	3893,5	0,148
Buyuk Britaniya	3464,2	4,60%	4967,9	0,125
Fransiya	4079,3	5,63%	6270,6	0,089
Yaponiya	2885,5	3,62%	6407,9	0,053
BAA	1532,0	17,78%	6408,0	0,032
Qatar	185,5	15,06%	3858,3	0,000

3-jadval. O'simlik moyi uchun hisob-kitoblar

Metallar uchun:

Mamlakat	Importning o'rtacha hajmi, 2017-2021 y., mln. AQSH dollar	Importning o'rtacha o'sish sur'ati, 2017-2021 y., %	O'zbekistongacha masofa, km	IBI
Xitoy	546836,4	19,61%	3630,7	1,000
Hindiston	59685,1	8,38%	3377,3	0,105
Yaponiya	110737,6	15,45%	6407,9	0,103
AQSh	160032,8	12,75%	10786,7	0,085
Turkiya	49325,0	18,49%	3893,5	0,073
Buyuk Britaniya	54393,7	15,13%	4967,9	0,062
BAA	24005,6	15,60%	4215,6	0,029
Kanada	40187,0	13,41%	8695,9	0,020
Bangladesh	6755,0	18,93%	4140,9	0,006
Qatar	4673,3	4,43%	3858,3	0,000

4-jadval. Metallar uchun hisob-kitoblar

Meva va sabzavotlar uchun:

Mamlakat	Importning o'rtacha hajmi, 2017-2021 y., mln. AQSH dollar	Importning o'rtacha o'sish sur'ati, 2017-2021 y., %	O'zbekistongacha masofa, km	IBI
Germaniya	24253,5	3,59%	5173,8	1,000
Hindiston	5583,9	-3,14%	3377,3	0,259
Yaponiya	9814,2	1,69%	6407,9	0,238
Kanada	10831,0	3,27%	8695,9	0,178
Bangladesh	1450,4	9,44%	4140,9	0,052
Turkiya	1760,0	-1,45%	3893,5	0,049
Malayziya	2212,7	3,80%	6509,4	0,030
Singapur	1729,1	4,75%	6001,1	0,021
O'mon	565,7	0,38%	2385,9	0,012
Qatar	658,1	-1,64%	3858,3	0,000

5-jadval. Meva va sabzavotlar uchun hisob-kitoblar

Ziravorlar uchun:

Mamlakat	Importning o'rtacha hajmi, 2017-2021 y., mln. AQSh dollar	Importning o'rtacha o'sish sur'ati, 2017-2021 y., %	O'zbekistongacha masofa, km	IBI
Hindiston	643,9	4,17%	10786,7	1,000
AQSh	1822,3	1,92%	3630,7	0,856
Xitoy	484,2	114,44%	3377,3	0,717
BAA	527,5	15,59%	4215,6	0,635
Buyuk Britaniya	353,1	3,88%	4967,9	0,334
Yaponiya	330,5	0,58%	6407,9	0,226
Bangladesh	119,1	15,76%	4140,9	0,153
Kanada	250,1	10,72%	8695,9	0,091
Turkiya	87,9	2,91%	3893,5	0,064
Qatar	42,5	14,84%	3858,3	0,000

6-jadval. Ziravorlar uchun hisob-kitoblar

To'qimachilik mahsulotlari uchun:

Mamlakat	Importning o'rtacha hajmi, 2017-2021 y., mln. AQSh dollar	Importning o'rtacha o'sish sur'ati, 2017-2021 y., %	O'zbekistongacha masofa, km	IBI
AQSh	156773,6	4,60%	11062,3	1,000
Xitoy	35087,8	5,27%	3464,4	0,708
Buyuk Britaniya	40400,4	-1,69%	4967,9	0,564
Yaponiya	42874,9	-0,74%	6408,0	0,460
BAA	12997,7	2,85%	4215,6	0,199
Hindiston	8492,2	8,83%	3377,3	0,158
Turkiya	9623,0	-0,94%	3893,5	0,155
Bangladesh	6675,1	12,02%	3094,2	0,132
Singapur	4599,9	3,02%	6001,1	0,032
Qatar	1260,0	0,58%	3858,3	0,000

7-jadval. To'qimachilik mahsulotlari uchun hisob-kitoblar

Xulosa

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, biz ko'rib chiqilayotgan mamlakatlarning har biri bo'yicha mahsulot importining o'rtacha o'sish sur'atlarining o'zgarishini hisobga olgan holda, shuningdek, ushbu bozorlarning istiqbollarini tahlil qilgan holda va bozor istiqbollari indeksidan (BII) foydalanib, O'zbekiston mahsulotlarini eksport qilishning eng istiqbolli bozorlarini aniqladik. Ular orasidan ko'rib chiqilayotgan mahsulotlarni O'zbekiston hali yetkazib bermayotgan mamlakatlarni tanlab, biz tanlangan toifadagi tovarlar bo'yicha eng istiqbolli bozorlar sifatida quyidagi bozorlarni keltirishimiz mumkin:

- Don mahsulotlari uchun – Yaponiya, Bangladesh;
- O'simlik moyi uchun - Hindiston, Xitoy, Bangladesh;
- Metallar uchun - Bangladesh;
- Meva va sabzavotlar uchun - Bangladesh, Singapur, O'mon;
- Ziravorlar uchun - Hindiston, Buyuk Britaniya, Bangladesh;
- To'qimachilik mahsulotlari uchun – Hindiston, Bangladesh, Singapur.

Quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Tashqi iqtisodiy faoliyatni shakllantirishda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan ayrim turdagi mahsulotlarga yuqoridagi davlatlarda katta talab mavjudligini inobatga olgan holda, yuqoridagi davlatlar bozoriga alohida e'tibor qaratish lozim;
- Ushbu davlatlar bilan potensial savdo yo'llari (koridor), tarif va notarif to'siqlarni o'rganish va ma'lumotlarni potensial eksportchilarga taqdim etish kerak;
- Eksport qilish imkoniyati mavjudligi ko'rsatilgan davlatlar bilan ishlab chiqarishni oshirishda qo'shma korxonalar, savdo uylari va onlayn-marketpleyslarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. *Ma'lumotlar*, veb-sayt: <https://www.go4worldbusiness.com>
2. *Sankey Diagram in Python*, veb-sayt: <https://plotly.com/python/sankey-diagram/>
3. *O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi*, veb-sayt: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>
4. Rémi Stellan, Jenny P. Danna-Buitrago, *Revealed Comparative Advantage and Contribution-to-the-Trade-Balance indexes*, International Economics, tom 170, 2022, bet. 129-155.
5. *Revealed comparative advantage*, veb-sayt: <https://unctadstat.unctad.org/en/RcaRadar.html>